

SUG‘ORILADIGAN EKIN YERLARDAN FOYDALANISH TAHLILI
**АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ПАХОВЫХ
ЗЕМЕЛЬ**

ANALYSIS OF IRRIGATED ARABLE LAND USE

Abdisalomov Abdirauf Abdisalom o‘g‘li “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti 2-bosqich doktoranti.

0009-0001-7291-5299

Nazarov Zavqiy Shavkat o‘g‘li “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti Uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish bo‘limi bosh mutaxasisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanish holati tahlil qilinadi. Sug‘oriladigan maydonlar qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish resursi hisoblanib, ulardan samarali foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va agrar sektor barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida sug‘oriladigan ekin yerlarining hozirgi holati, ularga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, shuningdek, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish zaruriyati o‘rganilgan. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasi va meliorativ holati ularning unumdarligiga bevosita ta’sir qilishi bois, GIS texnologiyalaridan foydalanish orqali monitoring tizimini shakllantirish taklif etiladi. Xususan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy irrigatsiya tizimlarini tatbiq etish va agrotexnik tadbirlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.



Аннотация: В статье анализируется использование орошаемых пахотных земель в Республике Узбекистан. Орошаемые земли являются ключевым производственным ресурсом в сельском хозяйстве, и их эффективное использование имеет решающее значение для обеспечения продовольственной безопасности и повышения устойчивости аграрного сектора. В ходе исследования были изучены современное состояние орошаемых пахотных земель, природные, экономические и социальные факторы, влияющие на него, а также необходимость внедрения ресурсосберегающих технологий. Поскольку уровень засоления и мелиоративное состояние орошаемых земель напрямую влияют на их продуктивность, предлагается сформировать систему мониторинга с использованием ГИС-технологий. В частности, были выдвинуты предложения по рациональному использованию водных ресурсов, внедрению современных систем орошения, разработке агротехнических мероприятий.

Abstract: This article analyzes the state of use of irrigated arable land in the Republic of Uzbekistan. Irrigated land is the main production resource in agriculture, and its effective use is of great importance in ensuring food security and increasing the stability of the agricultural sector. During the study, the current state of irrigated arable land, the natural, economic and social factors affecting it, as well as the need to introduce resource-saving technologies were studied. Since the salinity level and reclamation status of irrigated lands directly affect their productivity, it is proposed to form a monitoring system using GIS technologies. In particular, proposals are put forward for the rational use of water resources, the introduction of modern irrigation systems, and the development of agrotechnical measures.



Kalit so'zlar: Sug'oriladigan ekin yerlar, yer resurslari, meliorativ holat, sho'rланish, qishloq xo'jaligi, suv tanqisligi, resurs tejash, sug'orish samaradorligi, tuproq unumidorligi.

Ключевые слова: Орошаемые пахотные земли, земельные ресурсы, мелиорация земель, засоление, сельское хозяйство, дефицит воды, ресурсосбережение, эффективность орошения, плодородие почв.

Keywords: Irrigated arable land, land resources, land reclamation, salinity, agriculture, water scarcity, resource conservation, irrigation efficiency, soil fertility.

Kirish. Jahon resurslari institutining bashoratiga ko'ra, 2040-yilga borib O'zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu esa suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi[159; Elektron resurs].

Respublikamiz yer resurslari 44,5 mln gettarni tashkil etadi. Shundan 57,3% qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan. Respublikamiz yer resurslari arid iqlim sharoitida joylashganligi uchun qishloq xo'jaligi faqat sug'orma dehqonchilik asosidagina rivojlanishi mumkinligini taqoza etadi [2; 459-b].

Sug'oriladigan ekin yer maydonlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

Sug‘oriladigan ekin yer maydonlarida paxta va bug‘doy kabi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ekinlar hamda aholi ta’minoti uchun zarur bo‘lgan sabzovot, poliz, kartoshka va bog‘dorchilik-uzumchilik mahsulotlari, chorva uchun yem-xashak va ozuqa mahsulotlari va boshqalar yetishtiriladi [3; 34-b.]. 2024-yilda qishloq xo‘jaligi mahsuloti mamlakat bo‘yicha jami [161; Elektron resurs]:

- 9 million tonna don;
- 3 million tonnadan ortiq paxta;
- 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz;
- 5 million tonna meva va uzum;
- 4 million tonna kartoshka;
- 15 million tonnadan ko‘p go‘sht va sut;
- 30 ming tonna pilla yetishtirildi.

Tahlillarga ko‘ra, sug‘oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanish va ularning holatiga quyidagi ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatadi foydalanilmayotgan va ratsional foydalanilmayotgan yerlarning mavjudligi, sifati va miqdori 1-rasm.



1-rasm. Sug‘oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanish tahlili.

Iqtisodiy omillarga asosan hududlarni asosiy va aylanma fondlar bilan ta'minlanganligi, sug'oriladigan ekin yer maydonlarda tashkil etilgan qishloq xo'jalik korxonalari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining investitsion samaradorligi, ishlab chiqarishning intensivlik darajasi va boshqalar, ijtimoiy omillarga esa: mahalliy aholining turmush darajasi, mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan ta'minlanishi, aholi punktlarini zamonaviy injenerli infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi va boshqalarni kiritish mumkin. (2-rasm).

Sug'oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Tabiiy omillar

- yog'ingarchilik miqdori
- tuproqlari
- joyning relyefi
- relyef ekspozitsiyasi
- joyning eroziyaga xavfliligi

Iqtisodiy omillar

- yerdan foydalanuvchilarni asosiy va aylanma fondlar bilan ta'minlanish darajasi
- ishlab chiqarishning intensivlik darajasi
- xo'jaliklar ixtisosliklari va boshqalar

Ijtimoiy omillar

- mahalliy aholining turmush darajasi
- aholini ish bilan ta'minlanishi
- aholi punktlarini zamonaviy injenerli infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi

2-rasm. Sug'oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanishni tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln hektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalaniib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda[1]. Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, mavjud kollektor-zovur tarmoqlarini tozalash, ta'mirlash, yangi kollektor-zovur tarmoqlarini qurish, sug'orishda suvdan foydalanishni yaxshilash bo'yicha keyingi yillarda davlat tomonidan olib borilayotgan ishlarga qaramasdan ekin maydonlarining



sho'rlanish holati qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [5; 153-157-b., 4; 14-20-b.]. Xususan, qator olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, sug'oriladigan tuproqlarning kuchsiz sho'rlanishi paxta va bug'doy hosildorligini 8-10% kamayishiga, o'rtacha sho'rlanishi 20-25% kamayishiga va kuchli sho'rlanishi 45-50% kamayishiga olib keladi.

Xulosa. Yuqoridagi muammolarni hal qilish, birinchi galda, respublikamizda bugungi kunda mavjud sug'oriladigan ekin yer maydonlarini mintaqaviy joylashuvi hamda ulardan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarni bilish va ularning ta'sirini aniqlash zaruriyatini tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5742-son Farmoni.
2. C. Avezbayev, S.N.Volkov. Yer tuzishni loyixalash darsliklar va o'quv qo'llanmalar. - Toshkent – 2006. 459-b.
3. Teshayev Sh., Xoliqov B., Qo'ziyev R., Abduraxmonov N., Axmedov A., Teshayev F., Bozorov X., Nizomov R., Saimnazarov Y., Sattorov M. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tuproqlarining holati hamda unumdarligi past yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va yetishtirish agrotexnologiyalari bo'yicha tavsiyalar / Tavsiyanoma. - Toshkent, 2017. - 34 b.
4. Курвантаев Р., Мазиров М.А., Солиева Н.А., Хакимова Н.Х. Эволюция и прогноз развития орошаемых типичных и светлых серозёмов на третьей террасе реки Зарабашан // Земледелие, агрохимия и почвоведение. - Владимирский, 2021. С. - 14-20.

5. Qo‘ziyev R.Q., Abduraxmonov N.Yu. Sug‘oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va unumдорligi muammolari // «Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari». Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. - Buxoro, 2016. B. - 153-157.
6. Inamov B.N., Abdisalomov A.A. Научные решения и причины вывода орошаемых пахотных земель из сельскохозяйственного оборота. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель. Том 20, № 2 (241), 2025 DOI 10.33920/sel-04-2502-02 ISSN 2074-7977 С. - 82-89.
7. <https://lex.uz>
8. www.klaster.uz

